ZAMONAVIY ME'MORCHILIKNI AMALIYOTGA TADBIQ ETISHNING AFZALLIKLARI

Isakov Jasurbek Arifjonovich
Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti
Arxitektura va qurilish kafedrasi v.b professori
Yulbarsov Faxriddin Xamidullayevich
Arxitektura va qurilish kafedrasi o'qituvchisi

Annotasiya: Ushbu maqolada me'morchilik san'ati va zamonaviy me'morchilikning o'zaro uyg'unlashuviga misollar orqali ko'rsatib berilgan. Me'morchilik na'munalarini ko'p qavatli bino qurilishi bo'yicha taklif qilingan loyixa ko'rinishida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Me'morlik, bino, qavat, fasad, maydon, interyer, loyixa, dekorativ, gigiyena, sanitariya.

Аннотация: В этой статье показано, как архитектурное искусство и современная архитектура сочетаются друг с другом на примерах. Примеры архитектуры освещены в виде предложенного проекта строительства многоэтажного здания.

Ключевые слова: Архитектура, здание, этаж, фасад, площадь, интерьер, проект, декоративный, гигиенический, санитарный.

Abstract: This article shows how architectural art and modern architecture are combined with each other by examples. Examples of architecture are highlighted in the form of a proposed project for the construction of a multi-storey building.

Keywords: Architecture, building, floor, facade, area, interior, project, decorative, hygienic, sanitary.

Zamonaviy me'morchilikni amalyotga tadbiq etishda, milliy va zamonaviylikni bir-biriga uyg'unlashtirishga harakat qildik va milliy me'morchiligimiz yutuqlaridan foydalandik. Eng avvalo shu zamin yeridan tayyorlangan maxsulotlaridan foydalanish kerakligiga ahamyat qaratdik. Buning afzalligi dastlab ushbu maxsulotlarning topilishi onson va arzon bo'lishini bir yutuq deb bilsak , shu yer iqlim injiqligiga to'liq javob berishi issiqa va sovuqqa chidamliyligi yana bir yutug'imiz bo'ladi.

Binoni fasad qismini eng ko'p joyini egallagan tekkis terilgan g'ishtlardir. Pishiq g'ishtlarni qulayligi juda ko'p bo'lib qadimdan bizning eng muxum qurilish maxsulotimiz sifatida qadirlanadi. Pishiq g'ishtdan qurilgan xar qanday inshoot mustaxkamligi yuqori sanaladi. Tekkis terilgan g'ishtlar yuzasiga xech qanday suvoq va qoplamani keragi yo'q. G'ishtlar dekorativ bezak sifatida xam qo'llanilgan. Fasad yuzasi sariq va qizil rangli g'ishtlar kombinatsiyasi boshqacha jilo baxsh atadi bino rangiga . quruq va changli shamol natijasida devorlarga o'rnagan changlar bilinmaydi. Yomg'irdan so'ng bu changlar yuvilib tushib ketishi binoning yana bir afzalligidir. Pishiq g'ishlar sovuq va issiqa chidamliyligi, namga xam boshqa maxsulotlardan yaxshi qoplama sanaladi. Yillar davomida qayta tamirlashga suvoqli va bo'yalgan binolardan 2 marotaba ko'oroq xizmat qiladi.

Binoning yanada jilvakorligini ortirish maqsadida o'zbek milliy naqshlaridan foydalanilgan. Naqshlar asosan gulli girix va islimiy naqshlardir. Binonig yuqori qismini moviy rangli fonga tushurilgan naqsh elemenlari bezab turibdi. Pastki qavatning oynalar yonini ajib nozik ishlangan islimiy naqshlar bezab turibdi, kompozitsiyaning markaziy qimini sakkiz qirrali yulduz xam muayyan ma'noni anglatadi. Milliy naqshlarimizdan Farg'ona maktabi ananlaridan foydalanilgan. Yuqori qismida Buxoro maktabi na'munaliri bezab turadi.

Binoni plastik romlar bilan ta'minlanganligi ham o'rinli ahamyatga ega bo'lib plastik romlar issiqqa va sovuqda qayishmaydi. Ranglari ham issiqda o'zgarmaydi. Yuqori germetika rezina chetliklar tufayli shovqin o'tkazmasligi sababli bugungi zamonaviy inshoot va milliy inshootlarga xam mos kelmoqda. Plastik romlar ranglari xam turlichadir uni tanlashda bino rangi va

qanday maqsadlarda foydalanishiga qarab tanlanadi.birinchi qavat oynalari katta bo'lib bunda yorug'likdan unumli fodalanish birinchi maqsadimizdir.Binoning oynarini ko'p bo'lishiga yana bir sabab tabiiy yorug'likdan xam unumliy foydalanish elektir energiyani tejash. Qishda esa quyosh to'g'ridan to'g'ri binoga tushishi xona haroratini ko'taradi bu xam katta tejamkorlik va qulaylik sanaladi.

Tashqi fasaddan landshaft dizayni xam qulaylik va insonga zavq bera oladi. Yerga maxsus burschatka yotqizilgan. Maxsus joy ajratilib shu yerga yam yashilk gazon va manzarali daraxtlar ekilgan bu esa shu hududida ekolagik maydonchasi xisoblanadi. Bundan tashqari binonig ortida bolalar maydinchasi tashkil etilgfan . Bu yerda bolalar rag'umchog'i, sirpanchiq, xovuzcha, qum to'kilgan maxsus joylar tashkil etilishi bolalar bo'sh vaqtlarda shu joyda ota-onalari nazoratida bo'lishi taminlaytdi.

Bunoning ichki interyeri xam zamonaviy qilib tamirlangan . interyerni tashkil qilishda avvalo materyallarni mustaxkamligi va uzoq xizmat qilishiga qarab tanlangan. Bundan asosiy maqsad yaxshi maxsulolar uzoq xizmat qilishi yaxshi saqlansa 7 yildan 10 yilgacha muddatni maqsad qilganmiz. Bu esa kvartiralarni tez-tez tamirlashni oldini oladi bunga ketadigan sarmoyani boshqa samarli joylarga qaratish imkonini beradi.

Xonadonlar juda ko'p qulayliklarga ega bo'lib mexmonxonani yorug' va keng bo'lishiga qarab ochiq ranglardan foydalanildi. Shift qismi zamonaviy tarzda gipsakartondan foydalanilgan xolda soda shakilga keltirilgan . Shiftga maxsus tejamkor lampalar o'rnatilgani xonani judaxam yorug' bo'lishiga yordam beradi.

Devorlar ochiq ranglardan foydalanilgan holda tamirlangan . Dekoratsiyalardan xonani yanada mukammallikka ega bo'lishini taminladik. Bezatishda xona jixozlari mutanosibligi xam interyerni yaqqol ochib beradi.xonaning pol qismi parketdan ostiga maxsus qoplamaliy issitish moslamasi o'rnatilgan qishda xona yaxshi isishi uchun qullay tarzida tashkillantirildi.

Bolalar xonasi. Bolalar xonasiga alohida etibor qaratilgan ularni qiziqishi ranglar bir-birini to'ldirishi birinchi masala qilib olingan. Xona jixozlari xam xonaning umumiyligini to'ldirishi kerak deb hisobladik. Dars qilish uchun qulay joy tanlandi oynadan trushuvchi nur dars stolini va xonani yaxshi yoritadi. Kitob javonlari va kiyim javonlari xam joyni egallamaslik uchun xalaqit bermaydigan joyga o'rnatildi. Bola uchun xonada maxsus o'ynash uchun kaeng joy qoldirish xonani keng bo'lishi muxumdir , bunday xonada ulg'ayyotgan bolani psixalogiyasi xam intelekti xam yaxshi rivojlanishini mutaxasislar takidiga tayandik.

Yotoqxona inson umrining ko'p qismi o'tadigan joy sanaladi shu sababli xonani avvalo insonni dam oldiruvchi ranglar , ortiqcha dabdabalarsiz bo'lishi bu xonada xar qanday xolda bemalol dam olishiga ko'maklashiga etibor qaratdik.Xar bir xonada maxsus dekoratsiya insonnni tinchlantiruvchi bo'lib xizmat qilishi lozim. Bular tasviriy san'at namunalari eng qulay sifatida tan olingan. Buni tanlashda xonalar uchun maxsuslashtirish lozim. Shunday qulayliklarga ega xar bir xonani xar qanday tashqi tasirlardan muhofaza qiladi.

Xonalarni gigiyenik xolati birinchi vazifadir xar bir xonada xonani xavosi almashinib turushga katta etibor berilgan, maxsus vintelatsiya o'rnatilgan. Xar bir xonaning poldan isiydi buning uchun xammomga o'rnatilgan titan suvlari maxsus shilang yordamida xar bir xonadan aylantirib o'tkazildi. Issiq suv butun kvartira bo'ylab aylanib turishi natijasida bizga kerakli xaroratga erishish mumkin.

Bizning bu amaliyotga tadbiq etmoqchi bo'layotgan ko'p qavatli turar joy uchun mo'ljallangan binoni qurilishida va tamirlanishida mutaxasislar fikrlarini , inson psixalogiyasini o'rganib zamonamizning eng qulay milliy me'morchiligimizni eng mustaxkam ananalaridan foydalanib uyg'unlashtirdik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akilova K. B. Narodnoe dekorativno- prikladnoe iskusstvo Uzbekistana XX vek. Tashkent. 2005 god.
2. Axmedov M. Yog‘och o‘ymakorligi. -T.: “Iqtisod-Moliya”, 2007.
3. Azimov I. O‘zbekiston naqshu-nigoralari. –T. G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. 1987. -132 b.
4. Boymetov.B Tolipov N “Maktabda tasviriy san`at to`garagi` Tosh 1995
5. Bulatov S.S., P.P. Shabaratov N. A. Mansurov. “Naqqoshlik” “Fan va texnologiya” – 2010. (uslubiy qo‘llanma).
6. Bulatov. S.S.O‘zbek xalq amaliy be’zak san’ati. Toshkent.1991 yil.
7. G‘ulomov K. “Ashyolarga badiiy ishlov berish”. – T., “Bilim”, 2004.
8. Komenskiy Ya A “ Velikaya didaktika” Izobr ped soch Moskva :Uchpedgiz 1995
9. Исаков Ж. А., Юрданидзе М. Х. Применение инновационных технологий на уроках черчения //Вестник науки и образования. – 2019. – №. 23-2 (77). – С. 21-24.
10. Исаков Ж. А., Мамиталиев А. Г., Уринбоев И. К. ТАСВИРИЙ САНЪАТ МАШҒУЛОТЛАРИДА ХАЛҚ АМАЛИЙ БЕЗАК САНЪАТИ РИВОЖИНИНГ ПЕДАГОГИК МУАММОЛАРИ //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. 5. – С. 601-605.
11. Исаков Ж. А. НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ НАГЛЯДНОСТИ В ПОДГОТОВКЕ СТУДЕНТОВ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ //SCIENCE AND WORLD. – 2013. – С. 71.
12. Исаков Ж. А. Роль профессионализма и мастерства педагога в решении педагогических задач в процессе обучения изобразительному искусству //Актуальные вопросы современной науки. – 2013. – С. 86-89.
13. Чориев Р. К., Исаков Ж. А., Мухаммадиев К. С. Об информационном обеспечении повышения квалификации педагогических кадров в системе общеобразовательных школ //Психология и педагогика: методика и проблемы практического применения. – 2014. – №. 38. – С. 66-69.
14. Исаков Ж. ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО УЧИТЕЛЕЙ ТОЧНЫХ И ЕСТЕСТВЕННЫХ С УЧИТЕЛЕМ ЧЕРЧЕНИЯ //International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2023. – Т. 3. – №. 11. – С. 519-522.
15. Исаков Ж. А. ТАСВИРИЙ САНЪАТ ЎҚИТУВЧИСИНИНГ ИЛМИЙ-МЕТОДИК ТАЙЁРГАРЛИК ДАРАЖАСИ КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ //Научный Фокус. – 2023. – Т. 1. – №. 7. – С. 722-726.
16. Shakirova C. T., Isakov J. A., Orifjonov A. B. The importance of learning miniature painting in fine arts classes //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 12. – №. 1. – С. 334-337.
17. ИСАКОВ Ж. А., ИСМОНОВ Х. Б. ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ФАЗОВИЙ ТАСАВВУРЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ЎҚУВ ФАНЛАРИНИНГ ЎЗАРО УЙҒУНЛИГИ //ILMIY XABARNOMA. НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК Учредители: Андижанский государственный университет им. ЗМ Бабура. – №. 4. – С. 110-111.